

V. YOSH OLIM MINBARI

Трибуна молодого ученого

Young Researcher Tribune

YAPONIYANING MARKAZIY OSIYODAGI

“YUMSHOQ KUCH” SYOSATINING XUSUSIYATLARI

Mehrinisho Abdurasulova

Istiqlolli Xalqaro Tadqiqotlar Instituti

Osiyo-Tinch okeani markazi ilmiy xodimi

Abstract: Yaponiya “yumshoq kuch” siyosatini yuritish bo'yicha yetkachi davlat hisoblanib, xalqaro nizolarni harbiy yoki majburlov yo'li orqali emas, balki “yumshoq kuch”ga tayangan holda hal qilishga intiladi. U o'zining an'anaviy va zamonaviy madaniyati, biznes modeli va innovatsion texnologiyalari yordamida “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshiradi. Maqolada J. Nay tomonidan ishlab chiqilgan “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirish uchun eng katta resursga ega mamlakat sifatida Yaponiya har tomonlama tahlil qilingan. Shu bilan birga Yaponiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan “yumshoq kuch” siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, boshqa mamlakatlarga nisbatan farqlari, amalga oshirish mexanizmi hamda kuch markazlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Yaponiya, tashqi siyosat, “yumshoq kuch”, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Rivojlanishga Rasmiy Yordam (ODA), yapon diplomatiyasi.

Kirish

“Yumshoq kuch” Yaponiya diplomatiyasining zamonaviy konsepsiyasiga aylanib ulgurgan. Birinchi marta bu g'oyani Harvard universiteti professori Jozef Nay “Tashqi siyosat” jurnalining 1990 yil kuzida chop etgan maqolasida taqdim etgan. «Yumshoq kuch: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari» (New York: Public Affairs, 2004) kitobi orqali Nay juda katta auditoriyani egalladi. “Yumshoq kuch” tushunchasi ko'pincha madaniy diplomatiya konsepsiyasining sinonimi sifatida ishlatalishiga qaramay, ikkinchisi birinchisini to'ldiradi, lekin o'mini bosmaydi.¹

¹ Nye, Joseph S., Jr. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. Public Affairs. P.11. Available at: file:///C:/Users/User/Downloads/Soft_Power_the_Means_to_Success_in_World.pdf

Oddiy qilib aytganda, “yumshoq kuch” bu madaniyat, qadriyatlar va mafkura kabi nomoddiy yoki bilvosita ta’sirlarga asoslangan kuchdir. Nay yozganidek, *“Yumshoq kuch - bu majburlash yoki qo‘rqtish orqali emas, balki jalg qilish orqali maqsadga erishish qobiliyatidir. Bu mamlakat madaniyati, siyosiy ideallari va siyosatining jozibadorligidan kelib chiqadi.* Yapon olimlarining fikricha, “mamlakatimiz siyosati boshqalar nazarida qonuniy deb hisoblansa, bizning yumshoq kuchimiz ahamiyati ortib boraveradi.”²

“Yumshoq kuch”ga e’tibor 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir bo‘lgan terrorchilik xurujlaridan so‘ng yanada ortdi. Bu qisman Bush ma’muriyati ham mamlakat ichida, ham xorijda terrorizmga qarshi kurashish uchun “qattiq kuch”ga, ya’ni shafqatsiz harbiy kuchdan foydalanishga haddan tashqari tayanganligi sabab bo‘lgan degan xulosaga olib keldi.

Ushbu konsepsiya Yaponiyaning harbiy harakat bilan bog‘liq har qanday xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lmagan, ammo boshqa, noharbiy xalqaro hamkorlikka intiladigan mamlakat sifatidagi maqomiga to‘la mos keladi. Shu sababli ham so‘nggi yillarda “Yaponiya siyosatining yumshoq kuchi” mavzusida ko‘plab nashrlar, konferentsiyalar va simpoziumlarning tashkil qilinmoqda. Ushbu konsepsiya Yaponiyada *ikki guruh tadqiqotchilarini* shakllanishiga olib keldi:

Birinchi guruh Yaponiyada “yumshoq kuch” deyarli yo‘q, lekin uni rivojlantirish kerak, deb ta’kidlaydi. Yaponiya iqtisodiy qudratining 1970-1980-yillardagi o‘sishga nisbatan ancha sekinlashdi, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar iqtisodollarining tez yuksalishi hamda Yaponianing Tinchlik Konstitutsiyasiga sodiqligi - qattiq kuchini o‘z ichiga qamrab olgan oddiy qurol yani “yumshoq kuch” siyosatini kuchaytirish kerak deb hisoblaydigan guruh. (Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, Yaponiya iqtisodiy yetuk mamlakat bo‘lishiga qaramsdan, intellektual liderlik, bahs-munozaralar va ishontirish kuchi haqida gap ketganda Singapur, Gonkong, Hindiston kabi davlatlarga qiyoslaganda kuchsiz hisoblanadi.)

Ikkinchi guruh Yaponiya o‘zining an'anaviy madaniyati - maqsadli yoki maqsadsizligidan qat’i nazar, sezilarli “yumshoq kuch”ga ega va undan foydalanadi, deb ta’kidlaydi. Ko‘pincha manga, anime, karaoke, sumo, kompyuter o‘yinlari, oziq-ovqat, xususan, sushi va J-pop kabi musiqalar misol

² Nye J (2004). Nihon-no sofuto pawa. Sono Genkai to Kanousei. Japan's soft power: its limits and possibilities. Gaiko Foramu. (日本のソフト・パワー--その限界と可能性。 (特集 クール・ジャパン--国力の根源に迫る) № 6. P.12.

sifatida keltiriladi. Bu qarashning ba’zi tarafdarlari Yaponiya ko‘p jihatdan “yumshoq kuch”ni qo‘llashda namuna ekanligini ta’kidlaydilar.³

KAZUO OGOURA (Japan Foundation sobiq raisi) ning fikricha: “Yumshoq kuch”ni haqiqiy siyosiy nazariya sifatida qaralsa, qarama-qarshilik va ikkiyuzlamachilik bilan to‘ldirilgan mafkura sifatida ko‘rish mumkin. Masalan, din va mafkura “yumshoq kuch” ning kuchli namunasi sifatida ko‘riladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, din va mafkura dunyo bo‘ylab tarqalsa, har doim harbiy qudrat bilan birga kelganini payqamay bo’lmaydi. Uning fikricha, “yumshoq kuch”ni qattiq kuch qo‘llashni oqlovchi vositasi sifatida ko‘rish mumkin.⁴

Boshqacha qilib aytganda, “yumshoq kuch” yaxshilik va yomonlik tushunchasini o‘yinga kiritish orqali xalqaro qonuniylikka ega bo‘lmagan harbiy harakatlarni oqlashning nozik usuli bo‘lishi mumkinligini bilishimiz kerak. Shu nuqtai nazaridan, “yumshoq kuch” tushunchasi ikkiyuzlamachilikning bir turi degan xulosaga ham kelish mumkin.

Yuqorida aytigarlarni inobatga olgan holda, agar Yaponiya “yumshoq kuch” vositasidan xalqaro hamjamiyatda o‘z milliy qudratini namoyon etish vositasi sifatida foydalanmoqchi bo‘lsa, juda ehtiyotkorlik bilan yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch” tashqi siyosatning ajralmas qismidir. Mamlakat imijini shakllantirish va axborot bilan ta‘minlash qobiliyati uning diplomatik sa’y-harakatlari samaradorligini oshiradi. Xalqaro munosabatlar tizimida kechayotgan jarayonlar shundan dalolat beradiki, insonlar ongi va qalbiga ta’sir o‘tkazish, jamoatchilik bilan ishslash davlatning global maydonga ta’sirini belgilashda muhim elementga aylanadi.

“Yumshoq kuch” ta’sirini o‘rganish nuqtai nazaridan madaniy diplomatiya ham, madaniy aloqalar ham katta ahamiyatga ega, chunki ular bir davlatning jozibador bo‘lishining asosi bo‘lgan o‘zaro idrok va ijobjiy

³ Glen S. Fukushima President & CEO Airbus Japan K.K. 日本のソフトパワー. 2006年7・8月合併号No.639. P.21. Available at:<https://www.jftc.jp/monthly/archives/001/201802/9480ee77341ac62987618120e86cd807.pdf> (accesed 05.05.2023)

⁴ Sofuto pawa ron no shikaku” (2006, June/July). Wochi Kochi (a quarterly journal by the Japan Foundation), P. 60-61. Available at: <https://universityofleeds.github.io/philtaylorpapers/vp015863.html> (accesed 05.05.2023)

munosabatni shakllantirishga yordam beradi. “Yumshoq kuch”ni urushdan keyingi yapon diplomatiyasining an'anaviy vositasi deb atash mumkin. Xalqaro nizolarni hal qilish vositasi sifatida harbiy kuch ishlatishdan voz kechish, tinchliksevar konstitutsiyada muhrlangan poydevor, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yo'naliш edi.⁵ *Yoshida doktrinasiga* muvofiq, Yaponiya iqtisodiy rivojlanishga e'tibor qaratgan holda xalqaro munosabatlarda passiv o'rin tutishni afzal ko'rdi. Bu uning dunyodagi yangi imidjini shakllanishiga ta'sir qildi. Bugungi kunda u texnologiya va innovatsiyalar sohasida tan olingan yetakchi mamlakat hisoblanadi. Bundan tashqari, butun dunyo e'tiborini yapon biznes modeli muvaffaqiyatiga qaratdi. Boshqa tomonidan, Yaponiya o'zining iqtisodiy diplomatiyasi doirasida Rivojlanishga Rasmiy Yordam (ODA) dasturini amalga oshirishda jiddiy bel bog'ladi. Bu Yaponiya tashqi siyosatining asosiy vositalaridan biriga hisoblanadi. Tsuneo Akaxanining so'zlariga ko'ra, ODA Yaponianing “yumshoq kuchi”dan foydalanishning eng muvaffaqiyatli va yorqin misollaridan biridir.⁶

Yaponianing siyosiy yondashuvi dastlab o'zining an'anaviy madaniy qadriyatlarini eksport qilishga asoslangan edi. Ya'ni uning tashqi dunyodagi targ'iboti tarixiy ahamiyatini va uning ko'p asrlik madaniyatini global meros uchun ko'rsatishdan iborat edi. Ammo bugungi zamонавиy madаният qatlами Yaponiyani butun dunyoda mashhur qilish, yapon tarixi va madaniyati ildizlariga katta qiziqish uyg'otishning eng qisqa yo'li bo'lib ko'rindi.

Zamonaviy madaniyat salohiyatidan diplomatik manba sifatida foydalanish muhimligini Yaponiya sobiq tashqi ishlar vaziri Taro Aso quyidagicha ta'kidlagan: "*Hozirda biz oddiy fuqaroda shakllanadigan fikr muhiti milliy darajadagi diplomatiyaga keskin ta'sir ko'rsatadigan davrda yashayapmiz. Aynan shuning uchun biz pop madaniyatining butun dunyoga kirib borishini xohlaymiz. Toki, ular kelajakda diplomatiyadagi ittifoqdoshimiz bo'lsin.*"⁷

⁵ Nye J. Nihon-no sofuto pawa (2004). Sono Genkai to Kanousei. (Japan's soft power: its limits and possibilities). Gaiko Foramu. № 6. P.12.

⁶ Akaha (2010). T. Japan's soft power-hard power balancing act. The US-Japan alliance. Balancing soft and hard power in East Asia. Routledge. P. 60. Available at: file:///C:/Users/User/Downloads/the-us-japan-alliance-balancing-soft-and-hard-power-in-east-asia-1nbsped-0415487137-9780415487139_compress.pdf

⁷ A New Look at Cultural Diplomacy: A Call to Japan's Cultural Practitioners Speech by Minister for Foreign Affairs Taro Aso at Digital Hollywood University. 28.04.2006. Ministry for Foreign Affairs of Japan. Available at: <http://www.mofa.go.jp/announce/fm/aso/speech0604-2.html> (accessed 03.11.2023).

Iqtisodiy o'sishning sekinlashishi va ko'pikli iqtisodiyotning qulashi Yaponianing rivojlangan iqtisodiy davlat sifatidagi imidjiga ta'sir qilsada, chet eldag'i mavqeiga putur yetkaza olmadi. Amerikalik jurnalist *Duglas MakGray* bu mashhurlik hodisasini "yalpi milliy peshqadamlik" ("gross national cool") deb atadi. Uning mohiyati zamonaviy yapon pop madaniyatining tobora ommalashib borishi edi.

Sobiq Bosh vazir Sindzo Abe olib borgan tashqi siyosatda madaniy va xalq diplomatiyasi muhim o'r'in tutgan. Buning isboti sifatida 2015-yilda Yaponiya hukumati tomonidan xalq diplomatiyasiga xarajatlarni sezilarli darajada oshirish (20 dan 70 milliard iyenagacha), shuningdek, xorijdagi universitetlar va tahliliy markazlarda yapon tilini o'rganishni moliyalashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni keltirish mumkin.

“Yumshoq kuch”ni jamoatchilikka ko'rsatishning asosiy vositalari *madaniy va xalq diplomatiyasidir*. Yaponiyada bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liq; Tashqi ishlar vazirligi ma'lumotlarida ular xalq va madaniy diplomatiya (*koho bunka gayko*) deb yuritiladi. Yaponlar o'zlarining xarakteriga ko'ra o'z qadriyatlar tizimini to'g'ridan-to'g'ri so'zlar va g'oyalalar shaklida emas, balki “yumshoq kuch” manbai bo'lgan holda badiiy tarzda o'zni namoyon qilish yoki ijodkorlik orqali taqdim etishga moyildirlar.

Darhaqiqat 1944 yilda amerikalik antropolog olim Rud Bendikt Yaponiya xalqini o'rganar ekan, uni *Xrizantema va qilich* timsoliga o'xshatdi va kitobini ham shunday nomladi. Ya'ni u yapon xalqini xrizantema kabi juda chuqur estetik tajribaga ega bo'lgan, shu bilan birga qilich kabi nafaqat tajovuzkor, balki o'ziga xos qat'iy tartibi va qadr-qimmati, jangchi tartibini o'zida mujassam qilgan xalq sifatida tasvirlaydi.⁸ Shu sababli ham madaniy diplomatiya Yaponianing “yumshoq kuch” siyosatini tushunish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning “yumshoq kuchi” uning milliy o'ziga xosligi bilan bog'liq, chunki uning timsolini tashqi dunyoga yo'naltirish uning mamlakat ichidagi idrokini aks ettiradi. Ikkinci jahon urushidan keyin Yaponiya o'z qiyofasini qaytadan ham ichki, ham tashqi tomonidan qurishga majbur bo'ldi.

⁸Govrunov A.B. Kniga Rut Benedikt “Khrizantema i mech”. Izdatelstvo “Nauka”. P.41. (Говорунов А.В. Книга Рут Бенедикт «Хризантема и меч». Издательство «Наука», 2007. Стр. 41.) Available at: <http://anthropology.ru/ru/text/govrunov-av/kniga-rut-benedikt-hrizantema-i-mech> (accessed 03.11.2023)

Bu Yaponianing “yumshoq kuchi”ni shakllantirish uchun uning o‘zgacha xususiyatini ochishga zamin yaratdi.

Madaniy va xalq diplomatiyasiga mas’ul bo‘lgan asosiy muassasa Tashqi ishlar vazirligi hisoblanadi. 1972 yilda Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi huzurida madaniy almashinuvlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni muvofiqlashtirish uchun Yaponiya jamg‘armasi (Japan Foundation) tashkil etilgan. 2003 yilda unga mustaqil ma’muriy yuridik maqomi berilgan. Bugungi kunda jamg‘armaning 21 ta xorijiy davlatda 22 ta vakolatxonasi mavjud.⁹ Uning vakolatiga madaniy almashinuv dasturlari, treninglar, yapon madaniyati bilan tanishtiruvchi va yapon tilini targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish kiradi.

2004 yilda Tashqi ishlar vazirligi (MOFA) tizimida vazir kotibiysi tarkibida Xalq diplomatiyasi boshqarmasi tashkil etildi. An’anaga ko‘ra, Yaponiya “yumshoq kuchi”ning asosiy resurslari Janubiy va Sharqiy Osiyo hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga qaratilgan. Bunga misol sifatida pandemiya davrida Janubiy va sharqiy osiyo, Afrika mamlakatlarida amalga oshirilgan “*Vaksina diplomatiyasi*”ni ko‘rsatish mumkin. Shu jumladan, Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) O‘zbekiston uchun ham koronavirusga qarshi kurashish uchun ilg‘or tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar, jumladan, shaxsiy himoya vositalari, ventilyatorlar, raqamli rentgen apparatlari va 201 600 doza AstraZeneca vaktsinasini bepul yetkazib berdi.¹⁰

Bir tomonidan, Yaponiya Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ijobjiy imidj shakllantirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelayotgan bo‘lsa. Boshqa tomondan esa, ushu davlatlar bilan dunyo aholisining qalbida ijobjiy tuyg‘u shakllantirish uchun ular bilan raqobatlashmoqda.

Tokioning Markaziy Osiyoning beshta respublikasiga qaratilgan tashqi siyosat strategiyasida “yumshoq kuch” juda katta o‘rin tutadi. Bu mintaqa Yaponiya milliy manfaatlari nuqtai nazaridan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, Tokioning diqqat markazida bo‘lib, Yaponiya unga katta moliyaviy resurslar ajratadi. Yaponiya o‘zining madaniy mavjudligini

⁹ Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at: <http://www.mofa.go.jp/policy/culture/index.html> (accessed 03.11.2015).

¹⁰ “Dunyo axborot agentligi”. (17.03.2022) Available at: <https://daryo.uz/2022/03/17/ozbekistonga-yaponiyadan-201-600-doza-astrazeneca-vaksinasi-olib-kelindi/> (accessed 04.04.2023)

kengaytirishga, mintaqada qulay tashqi siyosat va biznes uchun sharoit yaratishga intiladi.

Markaziy Osiyoga nisbatan “yumshoq kuch”

SSSR parchalanganidan keyin, ya’ni 90 yillarning boshida Yaponiya o‘z e’tiborini tezda sobiq sovet ittifoqidan ajralib chiqqan yangi Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaratdi. 1992 yil oktyabr oyida Tokio konferentsiyasida so‘zga chiqqan Yaponiya vakili "*Osiyo davlati sifatida biz Osiyorning sobiq Sovet mamlakatlariga katta yordam berishni xohlaymiz*", deb ta’kidladi.¹¹ Bu Yaponiya hukumatining Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan siyosiy qiziqishining debochasi bo’ldi. Shunday qilib, Yaponiya boshidanoq Markaziy Osiyo xalqlari bilan umumiy “o‘ziga xos osiyolik” konsepsiyasini ta’kidlay boshladi, bu uning mintaqqa respublikalariga nisbatan yuritilayotgan siyosatning asosiga aylandi. Markaziy Osiyodagi yosh mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatish zarurati ularning geosiyosiy ahamiyati hamda Rossiya, Xitoy va Yaqin Sharq bilan yaqinligi bilan izohlash mumkin.

O‘z navbatida Markaziy Osiyodagi tabiiy resurslar ham Yaponiyani o‘ziga jalb qildi, ammo masofa uzoqligi va yetqazib berish bilan bog‘liq transport-logistik muammolar yapon siyosati uchun dolzarb ahamiyat kasb etmas edi. Iqtisodiy manfaat ko‘proq uzoq muddatli istiqbollarda ko‘rib chiqilgan. Yangi mustaqil davlatlar va Rossiya departamentining birinchi direktori Tetsuya Xirosening so‘zlariga ko‘ra, energiya resurslaridan foydalanish Yaponianing Markaziy Osiyodagi hozirgi e’tiborining asosiy sababi emas, ayni paytda u ko‘proq o‘zaro ishonchga asoslangan uzoq muddatli do‘stona munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan.¹²

Shu o‘rinda aytish joizki, Yaponianing mintaqaga kirib borishida uning iqtisodiy salohiyatini hisobga olish kerak. Bugungi kunda mintaqada Yaponiyaga nisbatan ijobjiy muhitni shakllantirishda u muhim rol o‘ynaydi. Tokio uran va noyob yer osti metallarini import qilishdan manfaatdor.

¹¹ Miyazawa, K. (1992, October 29). Opening Remarks by Prime Minister Kiichi Miyazawa at the Tokyo Conference on Assistance to the New Independent States. Retrieved from the web-site of the Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at: <https://worldjpn.net/documents/texts/exdpm/19921029.S1E.html> (accessed 11.07.2023).

¹² Hirose T (2008). Japan’s diplomacy in Central Asia: the perspective of a working- level policymaker. Japan’s silk road diplomacy: paving the road ahead. P. 183. Available at: 2008_12_BOOK_Len-Tomohiko-Tetsuya_Japan-Silk-Road-Diplomacy.pdf

Jumladan Yaponiya korxonalari neft, gaz va uran konlarini o‘zlashtirishda faol ishtirok ishtirok etib kelmoqda. Neft va gazni qayta ishlash, kimyo, qurilish, mashinasozlik va yengil sanoat kabi tarmoqlarda o‘z ulushiga ega.

Bazi olimlarning fikricha, Yaponiya xalqaro izolyatsiya, ya’ni yakkalanishdan qochish uchun Markaziy Osiyo bilan aloqalarni o’rnatishga intiladi. Yaponiya Markaziy Osiyoni o‘rganish jamiyati prezidenti Tomohiko Uyama rasmiylarning bayonotlarini tahlil qilib, “*Mintaqa mamlakatlari bilan do’stlik Yaponiyaning militaristik va mustamlakachilik o’tmishini qoralaydigan sharqiy osiyodagi noqulay ahvolining o’rnini to’ldiradi*”, - degan fikr bildirgan.¹³

Tokio BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolariga nomzodini qo’llab-quvvatlash, iqlim o’zgarishiga qarshi kurash, inson xavfsizligi va hokazolar sohasidagi Yaponiyaning tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashi uchun mintaqa davlatlaridan global miqyosda siyosiy qo’llab-quvvatlashdan manfaatdor. Masalan O’zbekiston BMTning 40dan ortiq turli xil tuzilmalarida Yaponiya nomzodini qo’llab-quvvatlab kelmoqda. *Shu jumladan so’ngi yillarda BMTning irqiy kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi (2018-21), Xalqaro sud (2018-20), xalqaro meteorologik ijroiya kengashi (2019), inson huquqlari kengashi (2020-22), bolalar huquqi qo‘mitasi (2021-25), xalqaro pochta ittifoqi raisligi (2021) uchun, qiyonoqlarga qarshi qo‘mita (2022-25) hamda BMT xalqaro xavfsizligining doimiy bo‘lmagan a’zoligi (2023-24) ni yo‘qlab o‘z ovozini berib kelmoqda.*

Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatini rivojlantirishda “yagona Osiyolik” g‘oyasi shubhasiz, katta rol o‘ynadi. Markaziy Osiyo xalqlari oldida ijobiy obro‘ga ega bo‘lish uchun Yaponiya o‘z jozibadorligini ko‘rsatishi va mintaqa bilan uzoq muddatli ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan "yumshoq kuch resurslari" orqali erishish mumkin deb topilgan.

Yaponiya «yumshoq siyosati»ning mintaqadagi o‘ziga xos ahamiyati va buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

¹³Uyama. T. Politika Yaponii v otnoshenii Kazakhstana. Est li strategiya? (Japanese Policies in Relation to Kazakhstan: Is there a "Strategy"? // Strategicheskiye perspektivy: veduschie derzhavy, Kazakhstan i centralnoaziatskiy uzel. / Ed. by Robert Legvold. Cambridge, 2003. P. 197-198. (УЯМА ТОМОХИКО (2003). ПОЛИТИКА ЯПОНИИ В ОТНОШЕНИИ КАЗАХСТАНА: ЕСТЬ ЛИ «СТРАТЕГИЯ»? Центр славянских исследований Университета Хоккайдо. Стратегические перспективы: ведущие державы, Казахстан и центральноазиатский узел). Available at: <file:///C:/Users/User/Downloads/32411233.pdf>

Birinchidan, diplomatik aloqa o‘rnatilganiga juda qisqa fursat o‘tdi. 90 yillarda Yaponiya mintaqasi davlatlari bilan aloqalar o‘rnatganidan buyon mintaqadagi xalqning ko‘nglini olish orqali mintaqada siyosiy mavqe’ga ega bo‘lishga intildi. Bu o‘z navbatida ancha jiddiy sa’y-harakatlarni talab qildi.

Ikkinchidan, Yaponiya boshidanoq bu mamlakatlar bilan “*o‘ziga xos umumiyy osiyolik*” terminini ta’kidlab keldi. Madaniy va irqiy umumiylilik, undan kelib chiqadigan hissiy yaqinlik Yaponiya rasmiy ritorikasining ajralmas qismiga aylandi.

Uchinchidan, Sharqiy Osiyodan farqli o‘laroq, Yaponianing bu mintaqadagi obro‘sni tarixning salbiy yuki bilan yomonlashmagan. Aksincha ikkinchi jahon urushi davrida Markaziy Osiyo mamlakatlariga surgun qilingan yapon askarlari barpo etgan ko‘plab sifatli va jozibador binolar uchun mahalliy xalq juda minnatdor. 1966 yildagi kuchli zilzilaga ham bardosh bergen Toshkent shahrida barpo etilgan Navoiy opera va balet teatri bunga yorqin misoldir. Yapon hukumati hozirgi kunga qadar uning restovratsiyasi uchun beg’araz yordam berib kelmoqda. Bularning barchasi mintaqada Yaponianing tashqi siyosiy tashabbuslarini amalga oshirish uchun dastlab qulay sharoitlar mavjud edi, deyishga imkon beradi.

Jamoatchilik va madaniy diplomatiya nafaqat Yaponianing Markaziy Osiyoda ijobiy imidjini yaratish vositasi sifatida asosiy rol o‘ynaydi, balki yaponlar nazarida Markaziy Osiyo tashqi siyosati mohiyatini anglashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaponiya geografik jihatdan mintaqadan uzoqda joylashgan bo‘lib, uning mintaqadagi iqtisodiy manfaatlari u qadar ahamiyat kasb etmaydi. Shunga qaramay, Tokio mintaqaga yordam berish uchun katta mablag’ ajratib keladi hamda bu erda o‘zining iqtisodiy va siyosiy ishtirokini asta-sekin kuchaytirib borishdan manfaatdor. 2014-yil holatiga ko‘ra, Yaponiya Markaziy Osiyoning besh respublikasiga 3,6 milliard dollar ajratgan. 2015 yilda Yaponiya hukumati rahbari Sindzo Abe mintaqaning barcha besh mamlakatida qilgan tashrifi davomida yaqin *5 yil ichida* mintaqaga 25 mlrd dollar yo‘naltirishi e’lon qildi.¹⁴

Sobiq elchi Akio Kavatoga ko‘ra, Yaponianing iqtisodiy yordami Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonda muhim rol o‘ynaydi, biroq afsuski uning Markaziy Osiyodagi ishtiroki hali ham o‘z fuqarolari tomonidan etarli

¹⁴Yaponiya Markaziy Osiyon rivojlantirishga 25 mlrd dollar tikadi. (30.12.2015). Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/uz/119528?q=%2Fuz%2F119528> (accessed 20.10.2023)

qo'llab-quvvatlashga ega emas. Bunga sabab Yaponiyada mintaqqa haqida etarli ma'lumotlar yo'qligi deb o'ylayman. Bu esa o'zaro tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi va ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga ham, Yaponiyaning mintaqadagi ko'p tomonlama hamkorlik tashabbuslariga ham salbiy ta'sir qiladi.

Ikki jahon urushi davrida 600 000 yapon askarlari Sibir va Markaziy Osiyo mintaqasiga og'ir mehnatga (1945-1958) surgun qilingan va ulardan 60 000 kishi halok bo'lgan. Shu sababli ham yaponlar naznida "Sibir" (shu jumladan O'rta Osiyo) "dahshatli joy" so'zining sinonimi sifatida ishlatalgan.

Biroq Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishgach, o'z tarixi haqida butun dunyoga gapira boshladi, ayniqsa "Ipak Yo'li"ga bo'lgan qiziqish boshqa millatlar singari yaponlarning ham etiborini tortdi. Mashhur antropolog hamda SSR davrida Sibirda surgunda bo'lgan Professor Kyuzo Kato (1922-2016) 1998 yildan to umrining so'ngiga qadar 18 yil davomida Termiz shahridagi buddizm ibodatxonalarini o'rganib ("qoratepa" ibodatxonasi), ikki davlat o'rtasidagi diniy, madaniy va ma'rifiy munosabatlarni tarixiy jihatdan ochib berishga intildi. Kyuzo Kato mintaqqa va Yaponiya o'rtasidagi ikki tomonlama akademik rivojlanishga buyuk hissa qo'shib, Yaponiyaliklar orasida Ipak yo'lidagi mamlakat (G'arbiy mintaqqa) ya'ni O'zbekistoniga bo'lgan qiziqishni ortishiga turtki berdi. Hozirda ham uning tadqiqot faoliyatini yapon va o'zbek shogirdlari davom ettirib kelmoqda.

Mintaqani yaponiyaliklar orasida *ommalashtirish*, shuningdek, *madaniy-tarixiy munosabatlarni o'rganish* va *Markaziy Osiyoning turistik jozibadorligini oshirish* hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Aslida Yaponlar Markaziy Osiyonini ancha oldin kashf etishgan. So'g'd va pahlaviy yozuvlari saqlanib qolgan Horyuji ibodatxonasida milodiy 761 yilga oid ikkita sandal daraxti bo'lagi topildi¹⁵ Bu so'g'diy larning uzoq sharqda dengiz savdosida ishtirok etganliklaridan dalolat beradi va Yaponiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar qadim zamonlarda ham mavjud bo'lganligini isbotlaydi. Yaponianing Nara shahri bilan O'zbekistonning Termiz shahri (arxeologik topilmalarga ko'ra, I-IV asrlarda (Kushon imperiyasi davrida O'rta

¹⁵ Rtveladze E. Civilizacii, gosudarstva, kultury Centralnoy Asii. (Civilizations, States, Cultures of Central Asia) Tashkent, 2005. P. 243. (Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии). Available at: file:///C:/Users/User/Downloads/civilizations_states_cultures.pdf (accessed 04.11.2023.)

Osiyo buddizmning markazi bo‘lgan) o‘rtasida yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.¹⁶

Yaponiyaning mintaqadagi imidji

Sobiq tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguchining so‘zlariga ko‘ra, Yaponiya Markaziy Osiyo uchun ishonchli hamkor, chunki u kuch ishlatmaydigan, mintaqqa davlatlari bilan siyosiy, hududiy va boshqa potentsial mojaro manbalariga ega bo‘limgan davlatdir.¹⁷ Ya’ni Yaponiya hech qanday g’arazli maqsadlarga, siyosiy ambitionsiyalarga ega bo‘limgan do’st davlat qiyofasi shaklida aks etadi. Shuningdek, Yaponiya mintaqqa ichidagi o‘zaro hamkorlik orqali integratsiyaga erishish mumkin deb hisoblaydi, hamda bu yo‘lda unga ko‘maklashishga harakat qilib kelmoqda. Bu sa’y-harakatlar 2004-yilda tashkil etilgan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti doirasidagi tashabbuslarning asosini ham tashkil etadi.

1990-yillarda iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlash zaruriyatiga duch kelgan, sotsialistik tipdagи rejali iqtisodiyot an’analariga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun, albatta, iqtisodiyotda davlatning hukmron rolini nazarda tutuvchi Yaponiyadagi iqtisodiy siyosat jozibali edi. "Yaponiya-Sharqiy Osiyo modeli"ni "anglo-sakson" modeliga qarama-qarshi qo‘yib, o‘z tajribasini etkazish uchun o‘z mutaxassislarini yuborib, iqtisodiyot va biznesni boshqarish kurslarini tashkil qilib kelmoqda.¹⁸

Yaponiya taraqqiyot modelining jozibador jihatlaridan yana biri uning innovatsiyalardagi yetakchiligidir. Yaponiya ham, mintaqqa davlatlari ham yapon texnologiyalari va Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari bir-birini to‘ldirishini bir necha bor ta’kidlashgan. Amaliy nuqtai nazardan, texnologik jihatdan rivojlangan qudratli davlat qiyofasi Yaponianing mintaqadagi raqobatbardoshligini oshiradi, sanoat sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi

¹⁶ Novaya vekha v sotrudnichestve uzbekskix uchenix. (A new milestone in cooperation between Uzbek and Japanese scientists). (23/02/2010) UzDaily. Available at: <https://www.uzdaily.uz/ru/post/1498> (accessed 04.11.2023.)

¹⁷ Policy Speech by Ms. Yoriko Kawaguchi (26.07.2004). Minister of Foreign Affairs of Japan at the University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Usbekistan. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at: URL:<http://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/speech0408.html> (accessed 04.11.2023.)

¹⁸ Hirose T (2008). Japan’s diplomacy in Central Asia: the perspective of a working- level policymaker // Japan’s silk road diplomacy: paving the road ahead. P. 183. Available at: 2008_12_BOOK_Len-Tomohiko-Tetsuya_Japan-Silk-Road-Diplomacy.pdf

(masalan, Qozog‘iston va O‘zbekistonda uran, neft va nodir yer osti metallarini ishlab chiqarish, Turkmanistonda gaz va kimyo sanoati).

Xususan, Yaponiya o‘zini atrof-muhit masalalariga alohida e’tibor qaratadigan davlat sifatida ko’rsatadi. Sobiq tashqi ishlar vaziri Yoriko Kawaguchi Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universitetida so’zlagan nutqida Yaponi hukumatining orol dengizini qutqarish loyihalarida, shuningdek, Semipalatinsk yaqinidagi radioaktiv ifloslanishni bartaraf etishda ishtirok etishini ta’kidlagan. Orol dengizini Yaponiyadagi Biva ko’liga, Semipalatinsk viloyatini esa Xirosimaga qiyoslab, mavjud ekologik muammolarni yapon xalqi yurakdan his qila olishini aytib o‘tdi.¹⁹

OISCA (The Organization for Industrial, Spiritual and Cultural Advancement) prezidenti Esuko Nakano 2022 yil noyabr oyida OISCA jurnalida bergen intervyusida tashkilot tomonidan 10 yil davomida Orol dengizining qurigan hududining 40 ming hektar maydonini ko‘kalamzorlashtirish loyihasiga start berilishi rejalashtirilganini ta’kidlab, mazkur loyiha Orolbo‘yidagi ekologik vaziyat va aholi farovonligini yaxshilashga ko‘maklashishiga umid bildirdi.²⁰

“Yumshoq kuch” tuvsifi

Yaponiya Markaziy Osiyoda o‘zining “yumshoq kuch” siyosatini Rivojlanishga Rasmiy Yordam (ODA) va xalq diplomatiyasi vositalari orqali amalga oshiradi. ODA Yaponianing mintaqaga kirishi uchun dastlabki asos bo‘ldi deya olamiz. 1990-yillar boshida “Osiyo davlati sifatida Yaponiya sobiq Sovet ittifoqi davlatlariga yordam beradi” lozungi ostida mintaqaga kirib keldi. Qolaversa, u uzoq vaqt dan beri mintaqaning yetakchi yordam donorlaridan biri bo‘lib, xech qanday manfaatlarsiz va mintaqaning tabiiy resurslaridan foydalanishga intilmasligini hamda uzoq muddatli yordam ko‘rsatishni maqsad qilganini ta’kidlab kelmoqda.

¹⁹ Policy Speech by Ms. Yoriko Kawaguchi, Minister for Foreign Affairs of Japan at the University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Uzbekistan on August 26, 2004 "Adding a New Dimension: Central Asia plus Japan". Available at: <https://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/speech0408.html>

²⁰ Yaponiya nodavlat xalqaro tashkiloti Orol dengizining qurigan hududini ko‘kalamzorlashtirishga ko‘mak beradi.(The Japanese non-governmental international organization supports the greening of the dry area of the Aral Sea) “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati» DUK (4 Noyabr 2022). Available at: <https://yuz.uz/uz/news/yaponiya-nodavlat-xalqaro-tashkiloti-orol-dengizining-qurigan-hududini-kokalamzorlashtirishga-komak-beradi> (accessed 20.10.2023)

“Yumshoq kuch”ni amalga oshirish vositalari

Yaponiya ODA mablag‘larini zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha masalan loyihalarni kreditlash uchun, qishloq xo‘jaligi, tibbiyat va sog‘liqni saqlash va ta’limni tiklashga hissa qo‘sish kabi ijtimoiy sohadagi ko‘plab loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. ODA doirasida Yaponiya madaniy faoliyat va oliv ta’limni rivojlantirish hamda madaniy rivojlanishni saqlashga qaratilgan loyihalarga bepul yordam ko‘rsatadi. ODAda madaniy grantlar (davlat muassasalari uchun) va "o‘rta darajadagi" grant yordami (nodavlat tashkilotlari uchun) tizmi mavjud. Yaponiya boshidanoq madaniy yordamga katta mablag‘ ajratdi, muzeylar, universitetlar va hokazolarni jihozlar bilan ta’minlash uchun grantlar ajratdi. Madaniy yordam, bir tomondan, mahalliy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Yaponiyani targ‘ib qilish sa’y-harakatlarning bir qismidir. Yapon tili o‘rgatiladigan muassasalarni tekinga jihozlash kabilarni bunga misol qilish mumkin.

Moliyaviy yordamdan tashqari, Yaponiya muntazam ravishda turli madaniy tadbirlarga mezbonlik qiladi, bu esa, albatta, Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlarining yaqinlashishi, o‘zaro tushunish va hissiy yaqinlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Yaponiya mavzusidagi tadbirlar ko‘pincha Markaziy Osiyoda ham poytaxtlarda, ham kichik shahar va qishloqlarda o‘tkaziladi. Yapon taomlari bilan bog‘liq tadbirlar, yapon filmlari, choy marosimi, jang san’atlari ayniqsa mashhur. Maktab o‘quvchilari yapon madaniyatini o‘rganishlari mumkin (masalan, Turkmanistonda bunday amaliyot keng tarqalgan).

Yaponiya hukumati yoshlar va mutaxassislarga qaratilgan ta’lim tashabbuslariga alohida e’tibor qaratmoqda. Yaponiya hukumati va Yapon fondi dasturlari Markaziy Osiyoda juda mashhur. Talabalar, stajyorlar va tadqiqotchilar uchun til kurslari, o‘qituvchilar uchun treninglar, hukumat amaldorlari, sog‘liqni saqlash, sanoat va huquq sohalaridagi mutaxassislar uchun “yosh yetakchilar” dasturi kabilarni keltirish mumkin.²¹

Universitetlararo aloqalar ham yaxshi rivojlanmoqda. Yaponianing Xosei, Vaseda, Nagoya, Tsukuba, Ritsumeikan va boshqa universitetlari mintaqaning yetakchi ta’lim muassasalari bilan talabalar almashinuv dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, 2006 yil sentyabr oyidan

²¹ Japan’s Embassy in Uzbekistan. Available at: https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr_ja/culture-education.html (accessed 04.11.2023)

boshlab Tsukuba universitetida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun maxsus dastur (SPCEA) mintaqaviy izlanishlar bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar olib bormoqda.²² Ta’lim dasturlari Yaponiya ta’lim muassasalarining jozibadorligini oshirish va shu bilan birga turli mamlakatlardan yoshlarini almashinuvga jalb etishga qaratilgan. Tokio Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlari bilan hamkorlikda ish olib boradi, bu esa quyosh chiqayotgan mamlakatni yaxshi biladigan va u bilan hamkorlik qilishga tayyor siyosiy hamda biznes elitaning yangi avlodini tarbiyalaydi deb o’ylayman.

Yapon tilini targ‘ib qilish ham aslida “yumshoq kuch”ning bir ko’rinishi deyish mumkin. Markaziy Osiyo universitetlarida yapon tilidan dars berish ancha qisqa tarixga ega. Yapon tilini ilk marta 1990-yilda Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutida, 1991-yilda Qirg‘izistonda, 1992-yildan Qozog‘istonda, 2002 yilda Tojikistonda va 2007 yildan boshlab esa Turkmanistonda o‘qitish boshlandi. 1997 yildan buyon bu mamlakatlarda yapon tili talabalari o‘rtasida har yili notiqlik sanati musobaqasi (*Benrontaikai*) muntazam ravishda o‘tkazib kelinadi.

Shu bilan birga, 2004 yilda “Markaziy Osiyo+Yaponiya” muloqotining boshlanishi mintaqaga mamlakatlari bilan hamkorlikka yagona yondashuvni ishlab chiqishga xizmat qildi. “Markaziy Osiyo +Yaponiya” tashabbusi doirasida intellektual muloqotning yo‘lga qo‘yilishi “yumshoq kuch” siyosatining ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanish mumkin.

Inson resurslarini rivojlantirish markazlari ya’ni Yapon markazlarining ochilishi til kurslari bilan yapon madaniyatini tarqatishda muhim turtki bo’ldi. Markazlar o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarini qo‘llab-quvvatlaydi - malaka oshirish kurslarini tashkil qiladi va materiallar bilan ta’minlaydi. Shuningdek, ular yapon xattotchiliigi, ikebana, origami, karaoke kabi madaniy elementlarni aholi orasida tarqatish orqali Yaponiyaga qiziqadigan jamiyat shakllantirishni maqsad qilgan deyish mumkin.

So‘rov natijalariga ko‘ra, yapon tili mintaqada bugungi kunga kelib ingliz, nemis, yoki koreys tili singari ommabop emas. Sababi mintaqada yapon biznesi Xitoynikiga nisbatan ancha kam. Bundan tashqari, kompaniyalar har doim ham yapon tilini biladigan mahalliy xodimlarni yo‘llashni xoxlamaydi. Shunday qilib, yapon tilida so‘zlashuvchi bitiruvchilar har doim ham yapon

²² University of Tsukuba. Available at: <https://www.chiiki.tsukuba.ac.jp/spca/news-events/news-events.html> (accessed 30.11.2023)

tilida ularning umidlari va sarflangan sa'y-harakatlariga mos keladigan ish topa olmaydi. Bu esa o'z navbatida tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

“Yumshoq kuch”ning kuch markazlari

Yapon hukumati “yumshoq kuch” siyosatini odatda *xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalar orqali*, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) o'rtaсидаги kelishuvlar asosida tashkil etilgan *Yapon markazlari* deb ataladigan inson resurslarini rivojlantirish markazlari orqali amalga oshiradi. JICA vakolatxonalari Markaziy Osiyoning deyarli barcha mamlakatlarida faoliyat yuritib, mamlakat rivoji hamda ekologik muhitni yaxshilashga yordam beradigan turli dasturlarni amalga oshirib kelmoqda.²³

ODA va madaniy-xalq diplomatiyasidan tashqari Yaponianing ijobiy imidjini yaratishda yana bir necha omillar ta'sir qiladi. Masalan, Buyuk ipak yo'li tasvirlangan bir qator asarlardan iborat O'zbekistondagi “Xalqaro madaniyat karvonsaroyi” ikki mamlakatning tarixiy yaqinligini tasvirlarda ifodalaydi. 1998-yil iyul oyida BMTning Tojikistondagi vakolatxonasida ishlagan va ekstremistlar tomonidan o'ldirilgan Tsukuba universiteti professori Yutako Akinoning merosini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur.²⁴ 1999-yilda BMT universiteti Markaziy Osiyo tadqiqotchilari uchun Yutako Akino xotirasiga bag'ishlangan stipendiya grantini joriy qilgan.²⁵ Yana bir misol, 1994-1998 yillarda Farg'onada vodiysida faoliyat yuritgan Komatsu kompaniyasi muhandisi Osaka Sigekatsu kam ta'minlangan oilalar farzandlariga bepul yapon tili darslarini o'rgatishni tashkil qilib, hozirgacha faoliyat yuritayotgan yapon Noriko Gakkyu maktabiga asos soldi. “Yumshoq kuch”ni amalga oshirishda nodavlat sub'ektlar, jumladan, jismoniy shaxslar katta rol o'ynaydi deb o'ylayman. Chunki ular Markaziy Osiyo xalqlarida yaponlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga katta hissa qo'shib kelishmoqda.

²³ JICA Development Studies Program. JICA Chair. Available at: <https://www.jica.go.jp/english/activities/schemes/dsp-chair/index.html> (accessed 10.10.2023)

²⁴ Fumiaki Inagaki. Japan-Tajikistan is a country of mountains and rivers on the Silk Road, recovering from civil war. (Фумиаки Инагаки (17.11.2013). Япония-Таджикистан страна гор и рек на Шелковом пути, выздоравливающая после гражданской войны). Available at: <https://www.dialog.tj/news/news13212> (accessed 30.10.2023)

²⁵ UNU selects 2001 Akino Memorial research fellows. United Nations University. February-March 2001 Available at: http://archive.unu.edu/update/archive/issue7_2.htm (accessed 04.11.2023)

“Yumshoq kuch”ning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning ta’sirini o‘lchash qiyin. Ta’siri darhol namoyon bo‘ladigan qattiq kuchdan farqli o‘laroq, yumshoq kuchlarni ko‘rish uchun vaqt kerak bo’ladi. Ammo “yumshoq kuch”ni doimiy ravishda oziqlantirib turilsa, natijalar barqaror va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, Yaponiya imidjini shakllantirish tufayli u biznesni yanada rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratishga muvaffaq bo‘ldi deb o‘ylayman. Bu esa o‘z navbatda, Yaponianing ushbu mintaqada, ayniqsa, Xitoy va Koreya bilan raqobat nuqtai nazaridan “yumshoq kuch” siyosatining muvaffaqiyati haqida xulosaga olib keladi.

Xulosa

Diplomatik munosabatlar o‘rnatalganidan buyon o‘tgan yillar davomida Yaponiya Markaziy Osiyoda o‘zining “yumshoq kuch” salohiyatini izchil amalga oshirib kelmoqda. Salbiy tarixiy o‘tmishsiz qulay zaminning dastlabki afzalliliklariga ega bo‘lgan Yaponiya o‘zini g‘arazli maqsadlarni ko‘zlamaydigan va mintaqada siyosiy ambitsiyalarga ega bo‘lmagan neytral o‘yinchisifatida ko‘rsatmoqda. U doim uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan do‘stona munosabatlarga tayangan siyosatni ilgari suradi. Shu bilan birga, urushdan keyingi rivojlanish strategiyasini mintaqqa mamlakatlari uchun model sifatida taklif qilib kelmoqda.

Yaponiya Markaziy Osiyoga nisbatan “yumshoq kuch” siyosatining boshqa davlatlardan ajralib turadigan o‘ziga xosligi shundaki, ular umumiyo‘siyolik konsepsiyasidan foydalanishadi deb o‘ylayman. Shu asosda Yaponiya o‘z imidjining eng jozibador tomonlarini – iqtisodiy rivojlanish, sharqona demokratiya, ilg‘or texnologiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi Markaziy Osiyo mamlakatlari intilishi va maqsadlariga hamohang sifatlarni ilgari suradi.

Yaponiya yetakchi donor davlatlardan biri sifatida mintaqqa ehtiyojlari uchun ta’sirchan iqtisodiy yordam ko‘rsatish bilan o‘zining ijobjiy imidjini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu yordamning katta qismi Yaponiya global yetakchilardan biri bo‘lgan inson kapitali bo‘yicha loyihalarga yo‘naltiradi. Shuningdek, ODA madaniy grantlarga ham katta e’tibor qaratilmoqda, ular nafaqat mintaqaning madaniy merosini saqlashga, balki Yaponiya va Markaziy Osiyoda yapon tilini targ‘ib qilishga qaratilgan. Madaniy-gumanitar tadbirlar, shuningdek, iqtisodiy yordam loyihalarini yoritish nafaqat mintaqqa aholisining

e'tiborini jalb qilish, balki Yaponiyaning o'z fuqarolariga Markaziy Osiyoda yaponlarning mavjudligi sabablarini tushuntirish uchun ham zarurdir. Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va yangi global mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish jarayonida Yaponiyaning “yumshoq kuch” siyosati muhimligicha qoladi.

Bibliography:

1. Nye, Joseph S., Jr. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. Public Affairs. P.11. Available at:
file:///C:/Users/User/Downloads/Soft_Power_the_Means_to_Success_in_World.pdf
2. Nye J (2004). Nihon-no sofuto pawa. Sono Genkai to Kanousei. Japan's soft power: its limits and possibilities. Gaiko Foramu. (日本のソフト・パワー--その限界と可能性。 (特集 クール・ジャパン--国力の根源に迫る) № 6. P.12.
3. Glen S. Fukushima President & CEO Airbus Japan K.K. 日本のソフトパワー. 2006年7・8月合併号No.639. P.21. Available at:
<https://www.jftc.jp/monthly/archives/001/201802/9480ee77341ac62987618120e86cd807.pdf> (accesed 05.05.2023)
4. Sofuto pawa ron no shikaku" (2006, June/July). Wochi Kochi (a quarterly journal by the Japan Foundation), P. 60-61. Available at:
<https://universityofleeds.github.io/philtaylorpapers/vp015863.html> (accesed 05.05.2023)
5. Nye J. Nihon-no sofuto pawa (2004). Sono Genkai to Kanousei. (Japan's soft power: its limits and possibilities). Gaiko Foramu. № 6. P.12.
6. Akaha (2010). T. Japan's soft power-hard power balancing act. The US-Japan alliance. Balancing soft and hard power in East Asia. Routledge. P. 60. Available at:
file:///C:/Users/User/Downloads/the-us-japan-alliance-balancing-soft-and-hard-power-in-east-asia-1nbsped-0415487137-9780415487139_compress.pdf
7. A New Look at Cultural Diplomacy: A Call to Japan's Cultural Practitioners Speech by Minister for Foreign Affairs Taro Aso at Digital Hollywood University. 28.04.2006. Ministry for Foreign Affairs of Japan. <http://www.mofa.go.jp/announce/fm/aso/speech0604-2.html> (accessed 03.11.2023).
8. Govrunov A.B. Kniga Rut Benedikt “Khriantema i mech”. Izdatelstvo “Nauka”. P.41. (Говорунов А.В. Книга Рут Бенедикт «Хризантема и меч. Издательство «Наука», 2007. Стр. 41.) Available at: <http://anthropology.ru/ru/text/govrunov-av/kniga-rut-benedikt-hriantema-i-mech> (accessed 03.11.2023)
9. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at:
<http://www.mofa.go.jp/policy/culture/index.html> (accessed 03.11.2015).

10. "Dunyo axborot agentligi". (17.03.2022) Available at:
<https://daryo.uz/2022/03/17/ozbekistonga-yaponiyadan-201-600-doza-astrazeneca-vaksinasi-olib-kelindi/> (accessed 04.04.2023)
11. Miyazawa, K. (1992, October 29). Opening Remarks by Prime Minister Kiichi Miyazawa at the Tokyo Conference on Assistance to the New Independent States. Retrieved from the web-site of the Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at:
<https://worldjpn.net/documents/texts/exdpm/19921029.S1E.html> (accessed 11.07. 2023).
12. Hirose T (2008). Japan's diplomacy in Central Asia: the perspective of a working- level policymaker. Japan's silk road diplomacy: paving the road ahead. P. 183. Available at: 2008_12_BOOK_Len-Tomohiko-Tetsuya_Japan-Silk-Road-Diplomacy.pdf
13. Uyama. T. Politika Yaponii v otnoshenii Kazakhstana. Est li strategiya? (Japanese Policies in Relation to Kazakhstan: Is there a "Strategy"?) // Strategicheskiye perspektivy: veduschie derzhavy, Kazakhstan i centralnoaziatskiy uzel. / Ed. by Robert Legvold. Cambridge, 2003. P. 197-198. (УЯМА ТОМОХИКО (2003). ПОЛИТИКА ЯПОНИИ В ОТНОШЕНИИ КАЗАХСТАНА: ЕСТЬ ЛИ «СТРАТЕГИЯ»? Центр славянских исследований Университета Хоккайдо. Стратегические перспективы: ведущие державы, Казахстан и центральноазиатский узел).
14. Yaponiya Markaziy Osiyoni rivojlantirishga 25 mlrd dollar tikadi. (30.12.2015). Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/uz/119528?q=%2Fuz%2F119528> (accessed 20.10.2023)
15. Rtveladze E. Civilizacii, gosudarstva, kultury Centralnoy Asii. (Civilizations, States, Cultures of Central Asia) Tashkent, 2005. P. 243. (Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии). Available at:
file:///C:/Users/User/Downloads/civilizations_states_cultures.pdf (accessed 04.11.2023.)
16. Novaya vekha v sotrudnichestve uzbekskix uchenix. (A new milestone in cooperation between Uzbek and Japanese scientists). (23/02/2010) UzDaily. Available at:
<https://www.uzdaily.uz/ru/post/1498> (accessed 04.11.2023)
17. Policy Speech by Ms. Yoriko Kawaguchi (26.07.2004). Minister of Foreign Affairs of Japan at the University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Usbekistan. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Available at:
<http://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/speech0408.html> (accessed 04.11.2023)
18. Hirose T (2008). Japan's diplomacy in Central Asia: the perspective of a working- level policymaker // Japan's silk road diplomacy: paving the road ahead. P. 183. Available at: 2008_12_BOOK_Len-Tomohiko-Tetsuya_Japan-Silk-Road-Diplomacy.pdf
19. Policy Speech by Ms. Yoriko Kawaguchi, Minister for Foreign Affairs of Japan at the University of World Economy and Diplomacy, Tashkent, Uzbekistan on August 26, 2004 "Adding a New Dimension: Central Asia plus Japan". Available at:
<https://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/speech0408.html>

20. Yaponiya nodavlat xalqaro tashkiloti Orol dengizining qurigan hududini ko‘kalamzorlashtirishga ko‘mak beradi.(The Japanese non-governmental international organization supports the greening of the dry area of the Aral Sea) “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririysi» DUK (4 Noyabr 2022). Available at: <https://yuz.uz/uz/news/yaponiya-nodavlat-xalqaro-tashkiloti-orol-dengizining-qurigan-hududini-kokalamzorlashtirishga-komak-beradi> (accessed 20.10.2023)
21. Japan's Embassy in Uzbekistan. Available at: https://www.uz.emb-japan.go.jp/itpr_ja/culture-education.html (accessed 04.11.2023)
22. University of Tsukuba. Available at: <https://www.chiiki.tsukuba.ac.jp/spca/news-events/news-events.html> (accessed 30.11.2023)
23. JICA Development Studies Program. JICA Chair. Available at: <https://www.jica.go.jp/english/activities/schemes/dsp-chair/index.html> (accessed 10.10.2023)
24. Fumiaki Inagaki. Japan-Tajikistan is a country of mountains and rivers on the Silk Road, recovering from civil war. (Фумиаки Инагаки (17.11.2013). Япония-Таджикистан страна гор и рек на Шелковом пути, выздоравливающая после гражданской войны). Available at: <https://www.dialog.tj/news/news13212> (accessed 30.10.2023)
25. UNU selects 2001 Akino Memorial research fellows. United Nations University. February-March 2001. Available at: http://archive.unu.edu/update/archive/issue7_2.htm (accessed 04.11.2023)